

MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNI TASHKIL ETISH VA ULARDAN FOYDALANISH HUQUQINING VUJUDGA KELISH ASOSLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti Davlat huquqiy fanlar va
inson huquqlari kafedrası o'qituvchisi, leytenant

Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish ro'yxatga oluvchi organ arizani ko'rib chiqish uchun qabul qilgan kundan boshlab o'n kun mobaynida amalga oshirilishi batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Yer uchastkasi, muhofaza etiladigan hudud, ro'yxatdan o'tkazish, ro'yxatga olish.

Аннотация: В данной статье подробно изложено, что регистрация прав на земельные участки охраняемых природных территорий осуществляется в течение десяти дней со дня принятия регистрирующим органом заявления к рассмотрению.

Ключевые слова: Земельный участок, охраняемая территория, регистрация, регистрация.

Abstract: This article details that the registration of rights to land plots of protected natural areas is carried out within ten days from the date the registering authority accepts the application for consideration.

Keywords: Land plot, protected area, registration, registration.

Yer uchastkalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish quyidagi hollarda amalga oshiriladi: yer uchastkalariga mulkchilik huquqi paydo bo'lganda – mulkchilik huquqiga davlat orderi, oldi-sotdi shartnomalari va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar asosida; yer uchastkalariga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi paydo bo'lganda – yerni berish to'g'risida tegishli organning (mansabdor shaxsning) qarori asosida; ijara huquqi paydo bo'lganda yer uchastkasini ijaraga berish to'g'risidagi qaror va ijara shartnomasi asosida; yer uchastkalariga egalik qilish va undan foydalanish huquqi

o'tkazilganda – binolar va inshootlarning oldi-sotdi shartnomasi, ularni almashtirish, hadya qilish, renta shartnomasi, meros huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki mulk egasining yoxud uning vakolatli organining (shaxsning) qarori asosida; servitutlarda – shartnoma yoki sud qarori asosida; mushkallashtirishda – tegishli organlarning qarori asosida. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlariga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish quyidagi izchillikda amalga oshiriladi: ariza qabul qilinadi; ariza va unga ilova qilingan hujjatlar va materiallar tekshirib ko'riladi; arizalarni qabul qilish registrida ariza qayd etiladi; yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar ro'yxatga olinadi; yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi guvohnoma subyektga beriladi. Yer uchastkasiga ro'yxatga olinayotgan huquqning turiga qarab arizaga quyidagilar ilova qilinadi: huquqning paydo bo'lishi, o'tishi, cheklanishi yoki to'xtatilishini tasdiqlovchi hujjatlar; yer uchastkasini baholash materiallari (tuproq boniteti, qiymatini baholash va h.k.); belgilangan tartibda tasdiqlangan yer uchastkasining kadastr rejasi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish ro'yxatga oluvchi organ arizani ko'rib chiqish uchun qabul qilgan kundan boshlab o'n kun mobaynida amalga oshiriladi. Agar taqdim etilgan materiallar yetarli bo'lmasa, lekin bunday kamchilik shu qadar ahamiyatsizki, uni tezda tuzatish mumkin deb hisoblansa yoki qo'shimcha ma'lumotlar olish yoxud taqdim etilgan hujjatlarni ekspertiza qilish zarur bo'lsa, ro'yxatga oluvchi qaror chiqarishni ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki haftaga orqaga surishi mumkin. Kamchiliklar tuzatilmagan taqdirda, ro'yxatga olishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi, bu haqda ariza beruvchi yozma ravishda xabardor qilinadi, pul yig'imi qaytarilmaydi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish sabablari bo'lib, taqdim etilgan hujjatlar arizachi aytayotganidek huquqlarning o'zgarishini belgilamaydi, mazkur yer uchastkasining mansubligi to'g'risida nizo borligidan dalolat beruvchi hujjatlarning davlat ro'yxatga olish organida mavjudligi, mazkur yer uchastkasi qonunda belgilangan tartibda olib qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarning davlat ro'yxatga olish organida mavjudligi, kamchiliklarni bartaraf etish uchun ro'yxatga olishni kechiktirish qaroridan keyin kamchiliklarning bartaraf etilmaganligi. Ro'yxatga olishdan bosh tortilganligi yoki u

noto'g'ri amalga oshirilganligi ustidan arizachi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq shikoyat qilishi mumkin. Shikoyat arizasi yer uchastkasi joylashgan yerdagi sud organiga rasmiy rad etilganligi yoki o'zgarishlar to'g'risidagi qaror arizachiga yoki huquqlariga daxl qilingan boshqa shaxsga ma'lum bo'lganidan keyin uch oy ichida topshirilishi kerak. Shikoyat muddati tugaganidan keyin ro'yxatga oluvchi chiqargan qaror yuridik kuchga ega bo'ladi. Notarial jihatdan tasdiqlangan hujjatlar bo'yicha nizolar sud tartibida hal etiladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini ro'yxatga olish uchun ro'yxatga olish yig'implari undiriladi, huquqlar reyestridan ko'chirmalar berish, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, dublikatlarini tayyorlash uchun xizmat ko'rsatish yig'implari olinadi. Ro'yxatga olish yig'implari va xizmatlar haqi quyidagilar uchun undiriladi: yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar ro'yxatga olinganligi uchun; yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish to'g'risida guvohnoma berilganligi uchun; qo'shimchalar yoki o'zgartirishlarni yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar davlat registriga kiritganlik uchun; guvohnomaning dublikati, hujjatlarning, ma'lumotnomalarning har xil ko'chirma nusxalari, huquqlar reyestridan, yer-kadastridaftariidan ko'chirmalar berganlik uchun to'lanadi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ikki nusxada taqdim etiladi, ulardan biri – asl nusxasi, ikkinchisi – uning ko'chirma nusxasi. Tuzatib qo'yilgan, ustidan to'g'rilangan, so'zlari o'chirilgan va boshqa qayd etilmagan tuzatishlari bo'lgan hujjatlar, shuningdek, qalam bilan yozilgan hujjatlar qabul qilinmaydi. Hujjatning matni aniq va ravshan bo'lishi, hujjat mazmuniga aloqador raqamlar va muddatlar hech bo'lmaganda bir marta so'z bilan yozilgan bo'lishi kerak. Jismoniy shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi, ularning istiqomat joyi, tug'ilgan sanasi va joyi to'liq yozilishi kerak. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar davlat registridagi, yer-kadastridaftariidagi yoki kadastr ishlaridagi axborotni atayin yoki bilmasdan buzishda yoki yo'qotishda aybdor bo'lgan shaxslar ana shu buzishlar, yo'qotishlar yoki buzilgan axborotni ko'rsatish oqibatida biron-bir uchinchi tarafga yetkazilgan har qanday zarar uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlaridan maxsus foydalanish

ruxsatnomalar bo'yicha amalga oshiriladi. Foydalanuvchilar maxsus ruxsatnoma olish uchun: O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik turlarini tabiiy muhitdan olishga ruxsatnoma - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan; davlat o'rmon fondi hududida o'simlik dunyosi obektlaridan foydalanishga ruxsatnoma - O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan; zaxira yerlarda pichan o'rish va chorva mollarini o'tlatishga, o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesishga ruxsatnoma - mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan; o'z yerlarining hududida tabiiy ozuqa maydonlarida pichan o'rish va chorva mollarini o'tlatishga ruxsatnoma - qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari tomonidan; O'zbekiston Respublikasi hududida o'simlik dunyosining boshqa barcha obektlariga ruxsatnoma - O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iklim o'zgarishi milliy kumitasi tomonidan beriladi.

REFERENCE:

1. Mirziyoyev SH.M. Oliy majlisga va ko'p millatli O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi 2026-yil 2-dekabr
2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O'zbekiston, 2018. – 508 b. ;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi //Xalq so'zi, 2017 yil 20 sentabr;
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.;
5. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz /O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi //Xalq so'zi, 2016 yil 16 dekabr;

6. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr;
7. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi //http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020;
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 29 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan bayram tabrigi (07.12.2021 y.) //www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti;
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitusiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi (7.12.2021 yil) //www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
10. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –T.: “O‘zYekiston” nashriyoti, 2021, 383-bet;